



RAQAMLARDAN MO'JIZA YARATGAN SHOIR

To'raxojayeva Adibaxon Xalilullayevna

Qo'qon davlat universiteti, boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti

Abdukarimova Zahroxon Abdukarimovna

Qo'qon davlat universiteti, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini Abdurahmon Akbarning hayoti-ijodi va she'rlarini tahlil qilinish tartibini ko'rib chiqamiz. Mazkur maqolada muallifning ijodiy yondashuvi, she'rlarining tarbiyaviy ahamiyati va bolalar dunyosiga bo'lgan muhabbati yaqqol namoyon bo'ladi.

Tayanch tushunchalar: O'zbek bolalar adabiyoti, raqamli she'r, tasavvur va ijodkorlik, yaratuvchanlik, tafakkurning rivojlanishi, fantaziya va mantiq

Аннотация: В данной статье мы рассмотрим порядок анализа жизни, творчества и стихотворений Абдурахмона Акбара учащимися начальной школы. В статье наглядно продемонстрирован творческий подход автора, воспитательная ценность его стихов, его любовь к миру детей.

Ключевые слово: узбекская детская литература, цифровая поэзия, воображение и творчество, креативность, развитие мышления, фантазии и логики.

Abstract: In this article, we will consider the procedure for analyzing the life and work of Abdurahmon Akbar for primary school students. This article clearly demonstrates the author's creative approach, the educational value of his poems, and his love for the world of children.

Key words: Uzbek children's literature, digital poetry, imagination and creativity, creativity, development of thinking, fantasy and logic

Abdurahmon Akbar 1962-yilda Yangiyo'l tumani Niyozbosh qishlog'ida tavallud topgan. U 1987-yilda hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetini bitirgan. Abdurahmon Akbar „Kichkintoy va paxtaoy“, „Ehtiyotkor toshbaqa“, „Uyquchining tushlari“ kabi o'ndan ortiq she'riy kitoblar muallifi.[1. B. 306-312]

“1995-yil O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilingan”.[2. 224 b.]

Abdurahmon Akbar ijodi rang-barang mavzuda, shirali, ta'sirli yozilganligi bilan ajralib turadi. Aksariyat she'rlarining qahramonlari ko'ngillari osmon kabi musaffo, shaloladek quvnoq, orzulari buloqlar suvidek toza, shamoldek tinim bilmaydigan bolakaylar ekanligining guvohi bo'lasiz.[3. 216 b.]

“Abdurahmon Akbar she'rlarining lirik qahramonlari o'zi hali bola bo'lsa-da lekin kattalardek jiddiy kattalardek o'ychan bolakaylardir. yuqorida keltirilgan ”Iltimos” nomli she'r qahramoni ham shular jumlasidandir”.

Abdurahmon Akbarning boshlang'ich sinf darsliklarida “Toshpo'lat” va “Bir qishloq bolalari” kabi she'rlari keltirilgan. [5.79 b.; 6.79 b.]

Abdurahmon Akbarning "Toshpo'lat" she'ri o'zbek xalqining ijtimoiy hayoti, insoniy muammolar va zamonning og'ir kechinmalariga bag'ishlangan. She'rda Toshpo'lat ismli bir bola obrazida baquvvat, kuchli, har qanday ishni osonlikcha hal qiladigan, biroq insoniy qadriyatlarni bilamyadigan, kattalarni hurmat qilmaydigan bola tasviri gavdalanadi.

She'r mazmunida Toshpolat o'z hayotidagi qiyinchiliklar, mehnat va kurashlar orqali xalqning kechinmalarini ifoda etuvchi ramziy shaxs sifatida gavdalanadi. U real vaqtda o'z haq-huquqlari va qadr-qimmatini saqlash uchun kurashgan, lekin ko'pincha kuchli tabaqalar va adolatsizlik oldida ojiz qolgan odamlarning yig'indisi sifatida talqin qilinadi.

Ushbu she'r faqat Toshpo'latning shaxsiy qismati haqida emas, balki kengroq ijtimoiy muammolarni yoritish orqali o'quvchini chuqur o'ylashga undaydi. Abdurahmon Akbar ushbu asar orqali insoniy g'urur, mehnatkashlik va adolat kabi tushunchalarning o'z ahamiyatini anglatishni maqsad qilgan. Bu she'rdan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, insonning qanchalar kuchli ekani faqat jismoniy baquvvatligi bilan o'chanmaydi, balki insonga xos ayrim xususiyatlar ham katta ahamiyat kasb etadi.

*Toshpo'latning polvonligi
Ekan yolg'on, puch.
Topolmadi tik turishga
U o'zida kuch.*

“Mashhur italyan yozuvchisi Janni Rodari bolalar adabiyotida o'ziga xos uslubi va yondashuvi bilan butun dunyoga tanilgan ijodkordir. Uning eng qiziqarli va o'ziga xos asarlaridan biri bu – uch xil yakunlanadigan ertaklaridir”. [7. B. 3-18.] Bu ertaklar oddiygina voqealarni hikoya qilmaydi va boshqa ertaklardagi kabi ananaviy “...murod maqsadiga yetibdi” bilan tugamaydi. Ular bolalarni fikrlashga, tanlov qilishga, muammolarga har xil yo'llar bilan yechim topishga o'rgatadi. Bola uchta yakundan birini tanlab, aynan nima uchun shu yakunni yoqtirganini o'ylaydi. sabab-oqibat bog'liqligini anglashga intiladi.

Shuningdek, bu ertaklar bolalar tasavvurining kengayishiga xizmat qiladi. Har xil yakunlar orqali bola o'z ongida yangidan-yangi ssenariylar yaratadi. Bu esa keyinchalik ijodkorlik salohiyatining rivojlanishiga kuchli turtki bo'ladi. Bolaning xayoloti kengaysa, u hayotda duch keladigan muammolarni ham o'z uslubida hal qilishni o'rganadi.

Rodarining uch xil tugaydigan ertaklari ko'prik vazifasini bajaradi, ya'ni ular bolaning bugungi tushunchalari bilan kelajakdagi qarorlarini bog'lab turadi. Hayot doimo bir yoqlama emasligini, ba'zida muammoga yechim topish uchun turli yo'llarni tanlash zarurligini o'rgatadi.

Abdurahmon Akbarning bolalar she'riyatiga olib kirgan bu yangicha shakliy uslubi Janni Rodarining ertaklaridagi noananaviy yondashuvga hamohangdir. Zero, Rodari bir voqeaga uchta yakun bergan bo'lsa, Abdurahmon Akbarning raqamli she'rlarida matndagi so'zlarning tovush tuzilishidagi raqamga mos keluvchi qism harflar bilan emas raqam bilan yoziladi. Masalan, “Salom xat” she'rida shunday holatga duch kelamiz:

„Aka, qanday yuribsiz,

*Soz ketyaptimi xizmat?
Askarlikka k10ikib
Ketgandirsiz batamom.
Buvim, q10i-qo‘shnilar
Sizga yo‘llashdi salom.
Q3oq-q3oq ch3moma
Terib qaytsak adirdan.
Ko‘chamizni nomlashib,
Ketishibdi yangidan.
„Ul. Zarechnaya “ emas,
Bilib qo‘ying, aka, siz,
Endi bizning uy-hovli
„Ilik“ ko‘cha, 18!
„Paxtakor“ ham ketma-ket
Q3ib turibdi zafar.
Imas, 3ta, to‘p urdi
Ilhom kechagi safar..
(„Salom xat“) [4. B. 283-292.]*

Yuqoridagi she’rda ko’nikib — k10ikib tarzida, qo’ni-qo’shnilar — q10i-qo’shnilar tarzida, quchoq-quchoq — q3oq-q3oq tarzida, chuchmoma — ch3moma tarzida, birlik — 1lik tarzida, quchib — q3ib tarzida, Birmas — 1mas tarzida kabi grafik jihatdan harf va raqamlarning birikuvi orqali yozilgan. Bu she’rlar orqali bolalar:

Sheriy matnda harf va raqamlarning noodatiy birikib kelishi ularning she’riy asar o’qish bo’lgan qiziqishini orttiradi.

Ijodkorlik bilan fikrlashni boshlaydi, sababi har bir satr bolaning o‘z tasavvur olamini kengaytiradi. Bolalarda xotira, mantiq va tahliliy fikrlash kabi ko’nikmalarni rivojlantiradi.

Ona tili va matematika fanlarini integratsiya qilish orqali darslarni yaxshi o’zlashtiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, bolalar adabiyoti ko’plab este’dodlar hisobiga boyigani alohida e’tirofga loyiq. Shu jumladan Abdurahmon Akbar ham ko’plab shoirlar singari istiqlool davri bolalar she’riyatining shakliy va mazmun-mundariyasi, obrazlar olamini yangilashga erishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti: Darslik. – T.: O’qituvchi- 2008. 379 b.
2. Jumaboev M. Bolalar adabiyoti. Darslik. - Toshkent: O’qituvchi, 2011. – 224b.
3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor: Darslik. - Toshkent: Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2006. -216 b.
4. Hamidova M. O. Boshlang’ich ta’limda bolalar adabiyoti: Darslik – Usmon Nosir Media, Namangan – 2022. 283-292 b.
5. Aydarova U. B. 2- sinf O’qish savodxonligi III qism. – Toshkent: Novda, 2023, - 79 b.

6. Aydarova U. B, Azizova N. K, Azizova M. E 2-sinf O‘qish savodxonligi II qism. – Toshkent: Novda, 2023. -79 b.
7. Jahon bolalar adabiyoti “ Bola bilan kapalak”. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, Toshkent – 2020. 3-18 b.
8. Ibrohimova Z. “Gulgina” II jild Kichkintoylar uchun badiiy adabiyot majmua”. – Toshkent: Yangi nashr nashriyoti-2010 – 526 b.
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdurahmon_Akbar